ANDIJON VILOYATI ANDIJON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 170-1-16-Q/25 | Andijon tumani hokimligi

Andijon tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6-,25 moddalariga asosan tumanda 2026 yil uchun ish o’rinlarini band qilib qo’yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Andijon tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Andijon tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Andijon tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 629 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 9.7 foiz (61 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 17.9 foiz (111 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 50.1 foiz (315 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 14.5 foiz (91 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 7.9 foiz (50 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0.16 foiz (1kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Andijon tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Andijon tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Andijon tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishdaqiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va

zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Andijon tuman Hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Andijon tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Jaxongirov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Andijon tuman Hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Muqimjonov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B. Yuldashev**

Andijon tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
170-1-16-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Andijon tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
ЖАМИ:			**11508**	**214**	**574**	**51**	**102**	**292**	**78**	**50**	**1**
1	Andijon tuman maktabgacha va maktab ta`limi bo`limi	202152699	60	3	1			1			
2	1-DMTT	207012457	48	1	2			1	1		
3	2-DMTT	207072755	49	1	2		1	1			
4	3-DMTT	207072233	46	1	2		1	1			
5	4-DMTT	207036047	36	0	2		1	1			
6	5-DMTT	207072716	50	1	3		1	1	1		
7	6-DMTT	207073818	46	0	3		1	2			
8	7-DMTT	207072748	42	0	2			1		1	
9	8-DMTT	207014407	45	0	3	1	1	1			
10	10-DMTT	207035325	30	1	1			1			
11	11-DMTT	207073113	35	0	2		1	1			
12	12-DMTT	207072724	64	0	4		2	2			
13	13-ДММТ	207014414	47	0	3		1	1	1		
14	14-ДММТ	207072225	43	0	3	1	1	1			
15	15-ДММТ	207035293	57	1	3		1	1	1		

16	19-ДММТ	207035318	39	1	2			1	1		
17	20-ДММТ	207035301	28	0	1			1			
18	21-ДММТ	207072731	35	0	2			1	1		
19	26-ДММТ	207034611	37	1	2		1	1			
20	27-ДММТ	207034595	39	1	2		1	1			
21	28-ДММТ	207072218	32	0	2		1	1			
22	29-ДММТ	207034604	54	0	4	1	1	2			
23	30-ДММТ	207012440	54	2	2		1	1			
24	31-ДММТ	207073912	27	1	1			1			
25	32-ДММТ	207072201	29	0	2			1	1		
26	33-ДММТ	207073120	49	1	2		1	1			
27	34-ДММТ	207072193	50	1	3			3			
28	35-ДММТ	207072684	75	3	2		1	1			
29	36-ДММТ	207073137	29	0	2		1	1			
30	37-ДММТ	207072240	43	1	2		1	1			
31	10-DIMI	202228143	52	1	3		1	2			
32	1 -Umumiy o'rta talim maktabi	203319718	125	3	6	1	1	2		2	
33	2 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880804	56	0	3		1	1	1		
34	3 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880811	62	2	2		1	1			
35	4-Umumiy o'rta talim maktabi	206880828	93	0	6		2	3	1		
36	5 -Umumiy o'rta talim maktabi	203345171	85	2	4		2	2			
37	6 -Umumiy o'rta talim maktabi	203326875	57	0	4	1	1	2			
38	7 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880835	71	1	4	1	1	2			
39	8 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880843	56	0	3			2		1	
40	9 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880850	38	0	2		1	1			
41	10 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880867	79	1	5	1	1	2		1	
42	11-Umumiy o'rta talim maktabi	206880874	50	0	3		1	2			
43	12 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880882	37	1	2		1	1			
44	13 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880899	46	0	3	1		1	1		
45	14 -Umumiy o'rta talim maktabi	203482747	113	0	7	1	2	3		1	
46	15 -Umumiy o'rta talim maktabi	203326890	36	0	2			1		1	
47	16 -Umumiy o'rta talim maktabi	203474899	78	3	2		1			1	
48	17 -Umumiy o'rta talim maktabi	203319693	89	2	4		1	2		1	

49	29-DIMI (18 -Umumiy o'rta talim maktabi)	203332323	135	1	8	1	2	3	1	1	
50	19 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880907	61	1	5	1	1	2		1	
51	20 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880914	56	1	3			1	1	1	
52	21 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880922	74	1	4	1	1	2			
53	22 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880939	47	0	3	1		1	1		
54	23 -Umumiy o'rta talim maktabi	203478054	121	2	6		2	2	2		
55	24 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880946	115	4	7	1	1	2	2	1	
56	25 -Umumiy o'rta talim maktabi	203460576	129	0	9	2	2	5			
57	26 -Umumiy o'rta talim maktabi	203487415	95	1	6	2	1	3			
58	27 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880954	78	2	3	1		2			
59	28 -Umumiy o'rta talim maktabi	203470248	71	1	4		1	2	1		
60	29 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880961	73	3	2			2			
61	30 -Umumiy o'rta talim maktabi	203470255	75	2	3	1		1	1		
62	31 -Umumiy o'rta talim maktabi	203460569	82	0	5		1	2	1	1	
63	32 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880978	74	1	4	1	1	2			
64	33 -Umumiy o'rta talim maktabi	203326883	166	4	8		3	4		1	
65	34 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880985	45	1	2			1		1	
66	35 -Umumiy o'rta talim maktabi	206880993	43	0	3	1		1		1	
67	36 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881003	106	4	3			2	1		
68	37 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881010	62	2	2		1	1			
69	39 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881034	64	1	3		1	1		1	
70	71-IDUM (40 -Umumiy o'rta talim maktabi)	206881042	71	0	5	1	1	2	1		
71	41 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881059	51	0	3		1	1	1		
72	42 -Umumiy o'rta talim maktabi	203456714	79	1	5	1		2		2	
73	43-Umumiy o'rta talim maktabi	206881066	102	1	6		2	2	2		
74	44 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881074	64	0	4	1	1	2			
75	53-IDUM(45 -Umumiy o'rta talim maktabi)	206881081	55	0	3			1		2	
76	47 -Umumiy o'rta talim maktabi	203319701	105	3	4			2	1	1	
77	48 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881106	42	1	2		1	1			
78	49 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881114	53	1	3		1	2			
79	50 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881121	32	0	2		1	1			
80	56-IDUM (51 -Umumiy o'rta	206881138	57	2	2		1			1	

	talim maktabi)										
81	52 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881145	50	0	3		1	2			
82	53 -Umumiy o'rta talim maktabi	206881153	86	2	4		1	2		1	
83	54 -Umumiy o'rta talim maktabi	207210915	104	4	3		1	2			
84	57 -Umumiy o'rta talim maktabi	311172209	48	0	3	1		2			
85	Bo'taqora muruvat uyi	200257591	230	2	14	2	2	4	3	3	
86	Andijon tuman Tibbiyot birlashmasi	200257814	3243	61	166	6	19	102	33	5	1
87	Andijon tuman Obodonlashtirish bo'limi	204547251	329	13	10	1	1	1	2	5	
88	Andijon tuman SEO va JSQ (SES)	200257609	78	2	3	1	1	1			
89	7-Musiqa maktab internati	200257616	185	7	6	1	1	2	1	1	
90	Andijon tuman 3-SON POLITEXNIKUMI"	206937453	72	2	3			3			
91	Andijon tuman sport maktabi	207037844	57	0	4	1		3			
92	Andijon tuman SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI	305088037	62	3	1	1					
93	O'zyo'lko'prik klasterining Andijon filiali Davlat muassasasi	202953912	110	4	4			3		1	
94	Andijon tuman 1-SON POLITEXNIKUMI"	202977114	49	1	2		1	1			
95	Andijon tumani 12-son bolalar musiqa va san`at maktabi	203154251	39	1	2			1	1		
96	Andijon tumani 16-son bolalar musiqa va san`at maktabi	203154268	55	3	2		1	1			
97	Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti	202388547	93	3	4			2	2		
98	"ANDIJON TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH" Davlat muassasasi	201330683	85	0	5	1		2		2	
99	Andijon tuman 2-SON POLITEXNIKUMI"	201331294	93	1	6	1	2	2		1	
100	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	200258091	475	13	20	4		12	2	2	
101	Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi qoshidagi nasos stantsiyalari va nergetika boshqarmasi	200256539	220	5	10	2		4	3	1	

102	RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN RUHIY SALOMATLIK ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING NARKOLOGIYA XIZMATI BO`YICHA ANDIJON VILOYATI FILIALI	309191058	222	7	9	2	1	4		2	
103	"ANDIJON YO`LLARDAN MUNTAZAM FOYDALANISH" DAVLAT MUASSASASI	305280091	89	0	5			3	2		
104	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI ANDIJON VILOYATI CHAVANDOZLAR MAKTABI"	309122506	33	0	2		1	1			
105	NORIN-QORADARYO SUV INSHOATLARI BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	200257710	272	2	17	2		10	3	2	
106	"ANDIJON TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI BO‘LIMI YANGI ANDIJON 1-SONLI MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI"	311235911	35	0	2		1	1			

Andijon tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
170-1-16-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Andijon tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun
nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori b*
majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manz

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogiron bo‘lg shaxsl
ЖАМИ:			**2507**	**20**	**55**	**10**
1	"NOZIMABONU-2001" XUSUSIY KORXONA	203512724	296	2	6	1
2	"UZ-METERTECH COMPANY" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	204314755	304	2	7	2
3	"YAXSHILIK SARI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	206085620	254	2	6	
4	"MILANA TEXTILE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	302747286	287	3	7	
5	"RAVON TARAQQIYOT ORZUSI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	302782466	778	7	16	2
6	"DINAR COLOR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	305745968	278	1	7	1
7	"MAKRO FARM ANDIJAN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	302979457	195	2	4	4
8	"BOGATIR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO`SHMA KORXONA	306041371	115	1	2	